



1991-yildan
chiqa boshlagan.

2017-yil. 4-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

tilvaadabiyot.uz til_adabiyoti@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyoti@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyoti@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyoti@mail.uz

Amir Temur tavalludining 681 yilligi



Amir Temur. Rassom Malik Nabiyev

Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!

USHBU SONDA



Amir Temur
tavalludining
681 yilligi

Amir Temur
ma'naviy merosi

3-bet



Trener
mashg'ulotlari

Writing task 2:
task and requirements

22-bet



Adabiy taqdim

Hikoyachilikda
maktab yaratgan adib

33-bet



Aktualiyalar
svoi dni

Эффективное использование
мировой практики
и инноваций при обучении
лингвистическим
основам языка

49



Авторское
слово

Г.Х.Андерсен
«Дюймовочка»

53



O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
2014-yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan qayta
ro'yxatga olingan.

2017-yil. 4-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
ТЕACHING

LANGUAGE AND LITERATURE
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Hikmatilla RASHIDOV
Sirojiddin SAYYID
Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehsan TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

N.NAMOZOVA
N.USMONOV

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.
Telefon: (0 371) 244-04-18,
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va
adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.
Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan
fikr-mulohazalarni bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilin-
maydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 06.04.2017-yilda topshiril-
di. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi
60x84/16. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times»
gamiturasini 10, 11 kegl. «O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma №17-175 Adadi 13013
nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

MUNDARIJA

AMIR TEMUR TAVALLUDINING 681 YILLIGI

D.Yo'ldosheva. Amir Temur ma'naviy merosi..... 3

DARS MUQADDAS

Xurshida Nishonova. «Gulim ko'kam», - der bahor!..... 5
Dildora Turdiyeva. «Ko'ngil tilagan murodig'a yetsa kishi...»..... 8
Adiba Bekchanova. «Poylaringga sadga bu jonim»..... 10
Donoxon Usmonova, Jamoliddin Nurmuhammadov. Xalq og'zaki ijodi - tarbiya vositasi..... 13

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Tal'at G'afforova. O'qituvchining kasbiy kompetentligi - bugungi kun talabi..... 15
Ra'no Xodjiyeva. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuv..... 17
Nargiza Yulanova. Yaxshi bilsang ishingni..... 18
Nazokat Jiyanova. «O'tkan kunlar»dagi «charxpalak»..... 20

TRENER MASHG'ULOTLARI

Nilufar Begibayeva. Writing task 2: types and requirements..... 22

TEACHING ENGLISH

Enquiries..... 26
Request..... 27

METODIK TAVSIYA

Umida Usmonova. Alternative assessment types for primary classes..... 28
Madina Nazarova. Context and polysemy..... 29

TADBIR SSENARIYSI

Muhayyo Karimova, Dilafuz Bobojonova. Baxtim shul - o'zbekning Zulfiyasiman!..... 31

ADABIY TAQVIM

Shoira Normatova. Hikoyachilikda maktab yaratgan adib..... 33

TAHLIL

Manzar Abdulkayrov. «Hashr bozorida beqiyamdurur...»..... 36
Bashorat Jamilova. Bolalarni suymagan kim bor?..... 38
Shodmonqul Salom. «Visol qushlari» sayri..... 40

TADQIQOTLAR

Baxtiyor Abdushukurov. «Qisasi Rabg'uziy» asandagi paremlar..... 42
Shahnoza Rahimova. Ingliz tili idiomalarini o'zbek tiliga o'g'irishda
stilistika va semasiologiya masalalari..... 44

QO'SHIMCHA MATERIAL

Go'zal Isakova. Ta'lim jarayonida maqollardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari..... 46
Rajabgul Egamova. Komil inson - ajdodlar orzusi..... 48

AKTUALNOE SLOVO DNYA

Baxtiyor Daniyrov. Эффективное использование мировой практики и инноваций
при обучении лингвистическим основам языка..... 49
Шахноза Халсаидова. Проблемы языка в эпоху глобализации..... 52

АВТОРСКОЕ СЛОВО

Юлия Мусурманова. Г.Х.Андерсен «Дюймовочка»..... 53

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Махмуджон Рахимов. Путешествие по Стране повторения..... 57
Дилором Абдуллаева. Хлеб - всему голова..... 59

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Феруза Саидова. Научить школьников умение учиться как педагогическая проблема
и один из важнейших приоритетов XXI века..... 61

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гузала Нигматуллина. Лингвокультурная компетенция как основа формирования
и развития знаний, умений и навыков по иностранному языку..... 63
Феруза Муратходжаева. Значение слов и словосочетаний, их применение
при переводе с английского языка на узбекский..... 64

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЗАМЕТКИ

Эльвина Алиева. Окационализмы в современных анимационных фильмах..... 66

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Беккенбауэр Раимов, Айшолпан Ниязова. Несколько приемов работы
с английскими фразеологизмами..... 68

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Анаргул Калдыбекова. Профессиональное развитие преподавателя как цель деятельности
системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров..... 71
Мукаррама Бердиева. Особенности создания текста..... 73

Гулором Тулабоева. Формирование умений конструктивного диалога
при изучении иностранного языка..... 75

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Юлия Матенова. Перекрестки эпох во французской литературе..... 77

ХРОНИКА

Мадина Билалова. Открытие Центра русского языка..... 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

Journal

BOLALIKNI SUYMAGAN KIM BOR?

Erkin Vohidov haqida soʻz yuritganda ulugʻ tarjimon va zabardast olim Ibrohim Gʻafurovning quyidagi eʼtirofi yodga tushadi: «U oʻzi bilan birga sheʼr xazinalarini olib yuradi. Uning bilan birga Navoiy yurgandek, Fuzuliy yurgandek, Gyote yurgandek, Geyne yurgandek, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Choʻlpon yurgandek...»¹

Erkin Vohidov ijodida bolalar mavzusi alohida oʻrin tutadi. Shoir oʻtgan asrning 50–70-yillaridayoq bolalar uchun talay sheʼrlar yozdi. Uning bu yoʻnalishdagi sheʼrlari orasida jamiyatning bolalikka, aniqrogʻi, otalar (umuman, kattalar) va bolalar munosabati aks etgan yoki aynan bola xarakteri, bolalikni qoʻmsash, shuningdek, kichkintoylarga oʻzbek tilining lugʻat boyligidan saboq beruvchi ixcham ijod namunalarini uchratish mumkin. Shoirning ayni oʻspirinlik yoshida bolalik xotiralarini ancha uygʻoqligi, kichkintoylar tasavvurini aniq detallar orqali aks ettirgani koʻrinadi. Uning qalamiga mansub «Ukamning jangi», «Oyga uchsak», «Chevar qiz», «Kunlar sekin oʻtadi», «Tun», «Kechagina» kabi sheʼrlarida bola xarakteri yorqin gavdalanadi. Masalan, lirik qahramonning ukasi «saman» otini minib, «qilich» taqib «jang»ga kiradi va «beshta dushman samolyotini qirdim», deya maqtanadi. Akasi ishonqiramay, uning ustidan kulib hovliga chiqsa, beshta oʻlik ari choʻzilib yotganini koʻradi. Keltirilgan detallar hamda voqea tasviri aynan bolalar olamiga xos. Biroq shoir shunchaki oddiy manzara chizish bilan cheklanmagan. Oʻsha davridayoq bolalar diqqatini soʻz ustida tafakkurlashga qaratuvchi maʼrifiy sheʼrlar ham bitadi. Uning «Olma», «Nutq haqida» sheʼri shunday mantiqiy mushohadaga asoslangan. Shoir, ayniqsa, nutqi ravon boʻlmagan bolalarga: «Har soʻzida «bu», «anu», «halig», «soʻng», «anaqa», «Bu-bu», «Unaqa»si – qanaqa? – deya tanbeh beradi. Ularni oʻz ona tilidan chuqur saboq olishga chorlarkan, otashin minbarlar oʻz notigʻini kutayotganini eslatadi:

*Mazmun nomli moʻljalga
 Soʻz – otilgan oʻq boʻlsin.
 Nishonga tegmay qolgan
 Bitta oʻq ham yoʻq boʻlsin.*

Shoirning «Bolalar» sheʼrida esa bu olam kechinmalari oʻziga xos tarzda badiiy tarannum etiladi. Lirik qahramon azaliy muammoni oʻrtaga tashlaydi: otalar va bolalar qachon bir-birini tushunishgan? Kattalar ota boʻlgach, oʻz bolaligi esidan chiqadi goʻyo, farzandlarining darhol voyaga yetishini istab, oʻz yoʻllaridan yurishga majbur qiladilar. Shu sababli lirik qahramonning eʼtirozi haqli:

*Ammo erish tuyular nechun
 Endi sizga bizning bolalik!*

*Siz ham, axir, bola boʻlgansiz,
 Koʻzingizda portagan hayrat.
 Oʻynagansiz, shoʻxlik qilgansiz,
 Qalbingizni qiynagan gʻayrat.
 Ayting,
 Yo siz gohi-gohida
 Qoidani buzmaganismiz?
 Tirmashib yo oʻrik shoxiga,
 Koʻk gʻoʻralar uzmaganismiz?*

Bolalikning barcha shoʻxliklarini hammamiz xursandchilik bilan eslaymiz. Oʻzboshimchalik bilan anhorlarda choʻmilish-u yalang oyoq yurganlarimiz ulgʻaygachgina shirin xotiraga aylanadi. Yaʼni shoir aytmoqchi:

*Toshonaga koptokni ursa,
 Sinarmi yo sinmasmi – qiziq.
 Oshpichoqni tuproqqa suqsa,
 Unarmi yo unmasmi – qiziq.*

Kattalar esa buni tushunishni xohlamaydi. Aksincha, hamma narsani taqiqlaydi, xatoga yoʻyadi. Biroq bolalar tafakkuri anoyi emas. Ular shu yoshida dunyoning xatolarsiz butunligi gumon ekaniga aqli yetib turibdi:

*Biz gohida shokolad uchun
 Yashirmaymiz, boʻlamiz ayyor.
 Axir siz ham shon-shuhrat uchun
 Nimalarga boʻlmaysiz tayyor?
 Bizlar danak talashsak bogʻda,
 Xipchin olib quvasiz bizni.
 Sizlar amal talashgan chogʻda
 Kim turgʻizar burchakka sizni?*

Darhaqiqat, bugungi yosh avlod otasiga shunday savolni baralla bera oladi. Shunga yarasha tafakkuri shiddat bilan oʻsib, haq-huquqlarini tanib kelmoqda. Shoir sheʼrlarini shu maʼnoda olis oʻtmishda qilingan bashorat, deyish mumkin. U yosh lirik qahramoni tilidan shunday zalvorli savolni oʻzi mansub kattalarga bermoqda. Sheʼr oʻz kelajagini yorqin tasavvur qila olgan bolalarning:

*Oʻzgarishda deydilar olam.
 Bir kun sizga yetib olamiz...
 Bolalik – bu asli kamolot,
 Kamoli umr esa – bolalik,*

degan hukmi bilan yakunlanadi. Bu esa shoirning kelajak avlod tafakkuri tobora oʻsishiga, intellektual salohiyati kuchli nasllarning istiqloqligiga erishuviga ishonchi dalolatidir. Chunki mustaqil yurtgina bolalikka chinakam kamolot berdi. Endigi bolalar vaqtini shunchaki shoʻxlik bilan oʻtkazishga emas, puxta bilim, turli tillar va texnika asrining barcha qulayliklarini teran egallashga sarf qilmoqdalar.

E.Vohidovning olis yillardan aks sado berib turgan «Kuzatish» sheʼrida ham kelajak orzular ramziy ifoda etilgan. Bunda shoir oʻz sheʼrlarini bolajonlarga qayta lab, parvozga daʼvat qiladi:

Yetar endi taralla etmoq,
Yetar endi ko'cha changitmoq.
Qiling endi fikringizni jam,
Fursat yetdi quyulmoqqa ham.
Ertangizni o'ylayin endi,
Tahsil uchun yo'llayin endi.
Sizga berib tarbiya, ta'lim,
Til o'rgatsin dono muallim.

Link qahramon tarjimonga topshirayotgan she'rlariga aytgan tilaklarida olis yurtga kuzatilayotgan farzandlarga bildirilgan istak zohir. Rost, muallif uchun o'z ijodi namunolari boladek aziz. E. Vohidov bu haqiqatni shunchaki eslatmoqchi emas. U yurt farzandlarining ham she'rlari misol o'zga ellarni zabt etishiga umid qilayotir. Shunday kezda donishmand shoirning «Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit» qabilidagi lutfini angimaslik mumkin emas. Muallif ularga qarata o'zga olamni kechganda ham o'z eliga munosibligini, mag'rurlanib sharqona odobni yo'qotmasligini uqtiradi. Garchi «Bo'lsin demam to'nli, yaktakli, Bo'lsin demam do'ppi, telpakli», – deya «Bu kun o'zga vaqt, o'zga odat»ligini his qilsa-da, «Faqat bo'lsin o'zbek yurakli» ta'kidida inson botini va o'zligidagi sobitlik ko'zda tutilgan.

Shoirning bevosita bolalikka murojaat qilib yozgan she'rlarida ham bunday tamsiliy hikoyalarni kuzatish mumkin. E. Vohidovning istiqlol yillaridagi bitiklari ham bu an'ananing shoir ijodida bardavomligini dalillaydi. Shoir 1991-yilda yozgan «Shum bola», «Kuzatish», «Bolaligim – bozorim», «Bir yolg'onda qirq yoig'on», «Vergul haqida» kabi she'rlari ma'rifiy ahamiyati bilan ham yosh kitobxonlar mulkiga aylangan. Ularning aksariyati boshlang'ich sinf darsliklaridan joy olgan.

Kichkintoylarning lug'at boyligi ular tafakkurini o'stiruvchi asosiy omildir. Ular ulg'aygani sari so'z qudratini his qila borib, uning rang-barang qirrasini ilg'aydilar. Jamiyat taraqqiyoti bu tamoyilni tezlashtiradi. Yosh avlodning did-saviyasi, tafakkuri o'sishida ularning til boyligi, so'z tilsimlaridan kengroq foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Shoirning «Olma» she'ri shunday tilsimlanadi:

Men sizlarning
Olmangiz.
Xomligimda
Olmangiz.
Nortojiga o'xshab so'ng
Voy qornim, deb
Qolmangiz.

Ma'lumki, turkiy xalqlar she'riyatida tajnisli qofiyaga asoslangan lirik janr – tuyuq mavjud. Bunda shakldosh so'zlar mo'jazgina matn doirasida turli ma'nolarda o'rinni qo'llanadi. Bu esa shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladi. Shuningdek, tuyuq ona tilining go'zalligidan zavqlanish, uning beqiyos imkoniyatlari bilan faxrlanishga asos bo'lar ekan, bolalarni yoshligidan bu badiiy san'atga o'rgatish maqsadi diqqatga sazovor. Ta'kidlangan so'zdagi ikki xil ma'no – meva



(olma) va harakatni bildiruvchi buyruq fe'li (olmoq) she'r mazmunining xotiraga mustahkam o'r mashishiga, shuningdek, ona tilimizning boyligini asoslashga xizmat qila oladi. Shoirning «Qarag'ay» she'ri esa o'rmonlarda o'sadigan ignabargli, tik, doimo yashil daraxt bilan tilmizda o'z yoki o'zga shaxsni bo'rtirib ko'rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora (akang qarag'ay) o'zaro omonimligi hamda «qaramoq» fe'li omofoni asosida yaratilganiga ko'ra ta'sirchan:

Bo'yin cho'zib
Qarag'ay,
Yon-atrofga
Qaragay,
Der u:
Barcha daraxtdan
Baland akang
Qarag'ay.

Anglashiladiki, o'tkir idrokli, keng mushohadali bolalarni tarbiyalashda, kelajakda o'z xalqi, o'z tili, o'z yurti boyliklarning haqiqiy egasi bo'la oladigan avlodni voyaga yetkazishda mazmundor, serqirra asarlarning ta'siri katta. Zero, tilning aniqligi, yorqinligi, serqirraligi ham jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oddiydan murakkabga tomon o'zgara boradi. Ijodkorlarning o'ziga xos tasvir uslubi, ramziy ko'chimlardan foydalanish mahorati, poetik obrazlarning yangilanishi yanada takomillashib boraveradi. «Aslida biz hayratga tushadigan narsalarnigina o'qishimiz zarur», – degan edi jahon adabiyotining buyuk namoyandasi Gyote. Bu purhikmat da'vat, dastavval, bolalar uchun g'oyat muhimligini unutmasligimiz lozim. Bolalar asarlarining lirik qahramoni, tasvir usullari, so'z va topilmalari, tili kichkintoylar hayratiga sazovor bo'lsagina ularning ommaviyligiga erishiladi.

Chunki bugungi yosh avlod ertamizni kashf etadi. Unga eltuvchi tilsim esa til va so'z. Bu xazinani yosh avlodga tortiq qilishda adib-u shoirlar, olim-u allomalar birdek mas'ulligini E. Vohidov ijodi asoslay oladi.

¹ G'afurov. Yurak mulkidagi kashfiyotlar. Kitobda: Erkin Vohidov. Saylanma. 1-jild: Ishq savdosi. T.: Sharq, 2000. 2-bet.